

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA

HUNARMANDCHILIK RAVNAQI

JDPI, Tarix va uni o'qitish metodikasi kafedrasи

o'qituvchisi Jamshid Eshboevich Toshboev

yanajamshid@mail.ru

JDPI, 4-kurs talabasi Yuldasheva Mohinur,

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolasida Amir Temur va Temuriylar davrida hunarmandchilikning rivojiga xizmat qilgan muhim omillar xaqida to‘xtalangan. Bundan tashqari, Temuriylar davrida hunarmandchilik va madaniy taraqqiyotning mintaqa va dunyo tamadduniga qo‘sishgan xissasi yoritib berilgan. Ushbu maqola soha mutaxasislari, talabalar va qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: “Zafarnoma”, Kastiliya va Leon qiroli Enrico III, Mutavajjih, Klavixo, ipak, atlas, kamokane, sendal, shoyi, Muhtasib.

Аннотация: В статье автор останавливается на важных факторах, которые способствовали развитию ремесел в период правления Амира Темура и Темуридов. Кроме того, подчеркивается вклад ремесел и культурного развития в региональную и мировую цивилизацию во времена Тимуридов. Эта статья предназначена для профессионалов отрасли, студентов и заинтересованных лиц.

Ключевые слова: «Зафарнома», король Кастилии и Леон Энрико III, Мутаваджих, Клавихо, шелк, атлас, камокане, сандал, шелк, Мухтасиб.

Annotation: In the article, the author dwells on important factors that contributed to the development of crafts during the reign of Amir Temur and the Temurids. In addition, the contribution of crafts and cultural development to regional and world civilization during the Timurid era is highlighted. This article is intended for industry professionals, students, and stakeholders.

Key words: "Zafarnoma", King of Castile and Leon Enrico III, Mutavadzhikh, Clavijo, silk, satin, Kamokane, sandalwood, silk, Mukhtasib.

O‘zbekistonda tarix fanida yuz bergan muhim ijobiy o‘zgarishlardan biri mustabid sho‘ro hukmronligi davrida Sohibqiron Amir Temur bobomizning nohaq

qoralangan pok nomining oqlanishi bo‘ldi. Zero, Sohibqiron shaxsiga bo‘lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, millat va davlat ravnaqidagi buyuk xizmathlari e’tirof etilgan holda bobokalonimizning 660 yilligi 1996 yilda jahon miqyosida keng nishonlandi. Shuningdek, istiqlol yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosati, Temuriylar hukmronligi xususida ko‘plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Fikrimizning isboti sifatida shu o‘rinda qayd etgan bo‘lardik, 2000 yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va Temuriylar haqida chop etilgan asarlar soni 500 tani tashkil etgan [6.426].

Bizga ma’lumki, Samarqandda va Movarounnahrning boshqa shaharlarida Temur va Temuriylar davrida ayniqsa, hunarmandchilik gullab-yashnadi.

Manbalarda Temur davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurilganligi haqida ko‘plab ma’lumotlar keltiriladi. Shungacha Samarqandda mo‘g‘ullar-ajnabiylar hukmronligi davrida, 1220-1360 yillarda, demak, keyingi 140 yil davomida hech qanday katta bino qurilmagan edi” [Mo‘minov I. 1993, 25 b.]. Buni Sohibqiron hayotiga bag‘ishlangan mashhur “Zafarnoma” asarining muallifi tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy ham, Kastiliya va Leon qiroli Enriko III (1390-1407) tomonidan Amir Temur huzuriga yo‘llangan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham tasdiqlagan.

Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy yozadi: “Andin so‘ng saodat va xayruluq bilan Samarqand sori mutavajjih bo‘lub, ul shahrkim, bihishtbarinning rashki erdi, poytaxt qilib o‘lturdi. Va har bir bekni bir sarkor ustida muhassil qo‘ydi. Mundin burun ul shaharg‘a ko‘b jafo tegib erdi va xarob bo‘lub erdi. Hazrat Sohibqironning davlatidin andoq bo‘ldikim, yer yuzidagi shaharlarnig rashki bo‘ldi va olamda aning ovozasi to‘ldi” [Sharafuddin Ali Yazdiy. 1997, 68 b.].

“Samarqand shahri,-deb yozadi Klavixo,-tekis yerda joylashgan bo‘lib, atrofi qum tepaliklar va jarliklar bilan qoplangan. U Sevilya shahridan bir oz kattaroq. Shahar tevaragida ko‘plab uy-joylar qurilgan. Uning atrofini butunlay bog‘ va uzumzorlar qoplab olgan. Bog‘lar ba’zi joylarda bir yarim-ikki liga masofaga cho‘zilib ketadi” [Rui Gonsales de Klavixo. 2010, 198 b.].

Kastiliyalik elchi o‘z esdaliklarida yana quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “Bu shahar va uning atrofidagi yerlar shunday to‘kin-sochinki, hayron qolmaslik mumkin emas. Ana shunday boyliklari bor uchun ham u Samarqand deb ataladi. Uning boyligi faqat oziq-ovqat bilan o‘lchanmaydi, balki bu yerda ipak, atlas, kamokane, sendal, shoyi kabi matolar ko‘plab to‘qib chiqiladi; mo‘yna va ipakdan astarliklar, turli xil surgichlar, ziravorlar, shuningdek, tillarang va zangori bo‘yoqlar va hokazo boshqa mollar ko‘pdir. Podshoh shaharning shuhratini oshirish niyatida shu qadar ko‘p sa’y-harakatlar qildiki, qaysi bir mamlakatni zabt etgan va bo‘ysundirgan bo‘lsa, ularning hammasidan (hunarmand) odamlarni olib kelib, Samarqand va uning tevarak-atrofidagi yerkunda joylashtirdi. Podshoh har xil kasb egalarini to‘plashga, ayniqsa, ko‘p harakat qildi.” [Rui Gonsales de Klavixo. 2010, 199 b.].

Amir Temurning muxoliflari uni kamsitishga urinib, Temur bosib olgan mamlakatlaridan ustalar, me’morlar va olimlarni ko‘chirib olib kelmaganda Samarqandda va boshqa shaharlarda bu darajada hashamatli, go‘zal qurilish va binolar bo‘lmash edi, hunarmandchilik ravnaqi bu darajaga kelmas edi deb isbotlashga behuda urinadilar. Biz ulug‘ bobomiz Amir Temurning o‘z yurishlari davrida minglab ustalar, me’morlar, qurilish ashyolari va boyliklarni Samarqandga olib kelganligini inkor etmaymiz. Jumladan, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi qurilish va me’morchilik ishlarida Sherzo, Tabriz, Isfaxon, Xorazmdan kelgan ko‘plab me’morlar, musavvirlar va hunarmandlar ishlaganlar [Shamsutdinov R., Karimov Sh. 2010, 435 b.]. Lekin asosiy ish boshqaruvchilar, mahalliy ustalar va me’morlar bo‘lganlar, bиринчи galda ularning milliy an’ana, san’at ijodlari yetakchi o‘rinni egallagan. Zero, Samarqand, Buxoro va Xorazmda hali Temur hukmronligigacha qurilgan va mavjud bo‘lgan va shu kunlargacha ham saqlanib kelayotgan tarixiy obidalar, o‘lkamizda olib borilgan arxeologik qazilma yodgorliklarining guvohlik berishicha, xalqimiz qadim-qadimdan hunarmandchilik, qurilish va me’morchilik san’atida hayratomuz va noyob qobiliyat egalar o‘lkasi bo‘lanligini ko‘ramiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Amir Temur davrida ayniqsa Samarqandning dovrug'i doston bo'ladi. Uning to'rt tomonida to'rtta darvozasi bo'lgan. Shahar atrofi qazilgan xandaqlarda oqib turadigan zilol suvlar bilan o'ralgan edi. Shaharning toza va ozodaligi juda ko'p manbalarda madh etilgan. Jumladan tarixchi al G'azzoliyning yozishicha: "Muhtasiblar ko'chaga tarvuz-qovun po'choqlarini hamda boshqa chiqindilarni tashlab yo'lovchilar uchun sirg'anish xavfini tug'dirmasligini, oqava suvlar sachrab odamlarning kiyimlarini iflos qilmasligini, qassoblar ko'chalarda yoki do'konlarning oldida mol so'yib atrofni ifloslantirmsliklarini, har kim o'z tomonidan kuragan qorni o'zi tozalashini va boshqa obodonchilik ishlarini qattiq nazorat qilganlar". ["Turkiston", 1992 yil 17 noyabr].

220 gektarni egallagan birgina Afrosiyobning o'zida Amir Temur hukmronligi davrida 80 ga yaqin hammom, qulay va gavjum 5 ta bozor bo'lgan. Tarixchi sayyoib Ibn Xaldunning hikoya qilishicha, Samarqandda "...oqar suv kirmagan biror ko'cha, biror hovli deyarli yo'q edi, faqat ba'zi uylargina bog'siz edi". Odamlar ko'chalarda ariqlarda oqib o'tadigan toza zilol suvlardan ichimlik suvi o'rnida foydalanganlar. Amir Temur poytaxti Samarqand atrofini bog'i rog'lar bilan o'rab olgan.

Samarqand yer yuzining sayqaliga aylandi. Shahar va uning atorofida Sohibqiron 14 ta bog'-ayvonli chorborg'lar, gulzor qilingan va suv havzalari bo'lgan saroylar bunyod ettirdi [Alimova D.A. va boshq. 2009, 29 b.].

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur xalq va davlat ehtiyoji uchun juda ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirdi. Uning davrida boshqa sohalar qatori hunarmandchilik ham gullab-yashnadi. Temur va temuriylar o'zlaridan keyin moddiy madaniyat bobida ulkan merosni qoldirdilar. Ular xalqimizning ko'hna hunarmandchilik san'ati durdonalarini olamga yoydilar. Hozirgacha ular yaratgan moddiy va ma'naviy meros o'zining go'zalligi va maftunkorligi bilan har qanday insonni o'ziga rom etib kelmoqda. Bu narsa Temur va Temuriylar naslining, siz va bizning qalblarimizda o'z ota-bobolarimiz bilan haqli ravishda g'ururlanish va faxrlanish his-tuyg'usini uyg'otadi.

Adabiyotlar va manbalar:

1. Alimova D.A., Buryakov Yu.F., Rahmatullaev Sh.M. Samarqand tarixi:(Qadimgi davrlardan bugungi kungacha)T.:“ART FLEX”, 2009.
2. Berdimurodov A. Amir Temurning Samarqanddagi bog‘lari // “Turkiston”, 1992 yil 17 noyabr soni.
3. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: “Fan”,1993.
4. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). T.: “O’zbekiston”, 2010.
5. Eshov B.J., A.A.Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. I-jild. T.: “Yangi asr avlodii”, 2014.
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. T.: “Sharq”, 2010.
7. Sharafuddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. T.: “Sharq”, 1997.